# ILK BOLALIK DAVRIDA BOLALARNING PSIXIK RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

**Xurramova Sabrina**
*TerDPI talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada ilk bolalik davrida fiziologik va jismoniy rivojlanish, harakat malakalari, kognitiv va nutqning rivojlanishi, bola tafakkurida egotsentirizmning yuzaga kelishi predmetli harakat faoliyatlarini rivojlanishi, nutqning ósishi, aqliy rivojlanish, predmetli faoliyat ilk bolalik davrida yetakchi faoliyat sifatida, óz - ózini anglash usullarini bayon etish.*

**Kalit sózlar:** *Ilk bolalik, egotsentirizm, predmetli faoliyat, óz - ózini anglash.*

Ilk bolalik davri: gódaklik davridan sóng rivojlanishning yangi bosqichi - ilk bolalik ( 1 - 3 yosh ) davri boshlanadi. Ilk bolalik davri bola hayotidagi eng ahamiyatga molik, uning kelajakdagi psixalogik rivojlanishini belgilab beruvchi muhim davr hisoblanadi.Bu davrdagi rivojlanishning asosini bolaning tóg'ri yurishi, muloqotga kirishishi va predmetli faoliyatni egallash xususiyatlari tashkil etadi. Tikka va tóg'ri yura olish imkoni bolani doimiy ravishda yangi ma'lumotlarni egallashda zamin bóladi . Bu yoshdagi bolalar óz xatti - harakatlari bilan juda faol va kattalar bilan muloqotga kirishishga intiluvchan bóladi.Yurishni órganish bolaning jismoniy ósishi uchungina emas, balki uning psixik taraqqiyoti uchun ham muhim ahamiyatga egadir.Bolaning mustaqil harakat qilishi - yurishi tufayli kóplab predmetlarga duch keladi, ularning nimalarga ishatilishini amalda kórib biladi va ózi ham ulardan kerakli órinda foydalana boshlaydi. Bola yurishni órgangangach, fazoni ham bilib boradi. Kichkintoy bolalar yaqindagi fazoni qóllarining harakati yordamida bilib oladilar,bunda kóz ham ishtirokneta boshlaydi. Bog'chagacha yoshdagi bola uzoqdagi bolani oriyentirovka qila boshlaydi.Bola yura boshlaganda,óz oyog'i yordamida masofa va predmetlarning turgan joylarini birmuncha aniq aytib berish kónilmasi vujudga keladi.

Bolaning aqliy jihatdan ósishida makon va zamon haqidagi tushunchalarni anglashga yordam beradigan sózlarni ózlashtirib olishi muhimdir.Predmetlar órtasida mavjud bólgan har xil fazoviy belgilarning va turli fazoviy munosabatlarning nomlarini bilib olish natijasida bolalar predetlar órtasidagi bu munosabatlarni ajratib olishga órganadilar. Shu tariqa,nutq predmetlarning belgilarini differensiyalash va umumiylashtirish vositasi bólib xizmat qiladi. Lekin, shu bilan bir qatorda,sóz birinchi signal sistemasi bilan bevosita bog'lanmog'i lozim. Ikki - uch yashar bolalardagi idrok ózining yetarli darajada ósmaganligi va beqarorligi bilan ajralib turadi hamda bir kuzatish obyektidan ikkinchi kuzatish obyektiga tez- tez kóchib turishi bilan harakterlanadi. Yaltiroq, chiroyli, kózga tez tashlanadigan predmetlar bola diqqatini óziga jalb qiladi.

Ilk yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyat turi - predmetlarni órganish, predmetlar bilan manipulyativ harakat hisoblanadi.

ózlay boshlagan bólishiga qaramay, ular hali vaqt va fazo kabi murakkab tushunchalarni tóg'ri idrok qila olmaydilar, chunki ularda hali turmush tajribasi yóq. Bunday murakkab tushunchalar kundalik hayot davomida sekin - asta hosil qilib boriladi.

Bir yoshgacha bólgan bolalarning diqqati nihoyatda beqaror va ixtiyorsiz bólsa, ikki yoshga tólgan bolalarning diqqatida yangi sifatlar yuzaga kela boshlaydi. Bola ósib ulg'aygan sari uning diqqati barqarorroq bóla boshlaydi. Diqqatning ozmi - kópmi barqaror bóla boshlagani shunda kórinadiki, bola ózini qiziqtirgan biror narsa bilan uzoq vaqt mobaynida shug'ullana oladi. Ikki yoshga tólib, uch yoshga qadam qóygach sózlarni tushunadi. Sóz boyligi orta borgach,bolaning óziga xos bólgan situativ tili haqiqiy tilga aylanadi. Bu yoshdagi bolalarning tafakkurlari óziga xos xususiyatlarga hamda konkret xarakterga ega. Ular ayni chog'da idrok qilib turgan narsalari haqida juda sodda tafakkur qila oladilar. Shuning uchun ham ularning tafakkurlari ba'zan harakterli tafakkur deb ham ataladi.

Gódaklik davrida bola qóliga ushlagan narsani oddiy harakatlari bilan kuzatsa, 2 - 3 yoshdagi bola shu predmet qismlarini diqqat bilan órganganidan sóngina, óz amaliy faoliyatida ishlata boshlaydi. 1 - 3 yoshdagi bola shakllanishda psixik rivojlanishning óta ahamiyatliligini inobatga olgan holda, ayrim psixologlar inson tug'ilganidan to yetuklik davrigacha bólgan psixik rivojlanish asosining taxminan órtalari, 3 yoshga tóg'ri keladi, degan mulohazani bildiradilar. Bu yoshdan boshlab bolalar predmetlarni órganish olamiga qadam qóyadilar. U endi kattalar bilan nutq orqali muomala - munosabatda bóla oladi va sodda axloq qoidalariga amal qila boshlaydi. Kattalar bilan bóladigan muloqoti tufayli bola atrof hayot haqida kóproq ma'lumot oladi. Nutq - bu yoshlarda nafaqat muloqot, balki bola tafakkurining rivojlanishi va ózini - ózi, shuningdek, bilish jarayonlarini boshqarish vositasi bólib ham xizmat qiladi. Ilk bolalik davridagi bolaning idroki ancha rivojlangan bólsa ham hali katta odamlar idrokidan keskin farq qiladi. Birinchidan, bolalarda turmush tajribasi yóqligi tufayli ularning idroklari ham anglashilmagan harakterga ega bóladi. Ular kóp narsalarga birinchi marta duch keladi. Shuning uchun bolalar idrok qiladigan kóp narsalar ularga yangilik, ya'ni dastlabki taassurot kuchiga ega bóladi. Ikkinchidan esa, bolalarning idroki kópincha ixtiyorsiz harakterga ega bóladi, ya'ni ularning idrokida muayyan bir maqsadni kózlash hali sezilmaydi. Shuning uchun ularning idroki bir narsadan boshqa narsaga beixtiyor kóchib keta beradi. Lekin bu yoshdagi bolalarda hissiyot kuchli bólganligi uchun ular ózlarini qiziqtiradigan, hayron qoldiradigan, hissiy kechinmalar uyg'otadigan narsalarni idrok qiladilar.

Ilk bolalik davridan boshlab bola uni órab turgan predmetlarning va ular orasidagi bog'liqliklarni anglashga harakat qiladi. Bu davr aqliy rivojlanishning asosini, idrok va tafakkur harakatlarining yangi kórinishlarini tashkil etadi. 1 yoshli bola predmetlarni izchil, tizmli ravishda kórib chiqa olmaydi. U asosan predmetning qandaydir bir kózga tashlanib turadigan belgisiga óz e'tiborini qaratadi va predmetlarni shu belgilariga kóra taniydi. Keyinchalik yangi idrok harakatlarini egallanishini bolani predmetli harakatlarini bajarishdan kóz bilan chamalab, harakat qilishiga ótishda namoyon bóladi, endi u predmetning bólajlarini ushlab kórmasdan,balki chamalab idrok eta oladi.

Ilk bolalik davrining boshlariga kelib, bolada birinchi tafakkur operatsiyalari yuzaga keladi. Buni bola biron predmetni olishga harakat qila olganidan sóng, uni sinchiklab órganishida kórishimiz mumkin. Ularning tafakkurlari, asosan, kórgazmali harakatli bólib, u atrof olamdagi bog'liqliklarni órganishga xizmat qiladi. Ózidan uzoqroq turgan koptokni biron - bir uzunroq narsa bilan itarib yuborish mumkinligini kórgan bola, endi mustaqil ravishda divan tagiga kirib ketgan koptokni tayoqcha yordamida olish mumkinligini

tushuna boshlaydi. Bola ikki yoshlarga borib, amaliy tafakkurdan birinchi marta foydalana oladi, uchinchi yoshida esa ba'zi tanish harakatlardan kontrekt masalalarni hal qilishda mustaqil foydalana boshlaydi. Masalan bu yoshdagi bola vazadagi tugmachani qóli bilan solib ololmasa u vachani tóntarib olaveradi.

Shunday qilib, xulosa órnida shuni aytish lozimki, ilk bolalik davri, bola hayotidagi eng ahamiyatli, uning kelgusi psixalogik rivojini belgiab beruvchi davr va shu bilan birga bu davr bola rivojlanish asosini bolaning tóg'ri yurishini, muloqotga kirishini va predmetli faoliyatni egallagani tashkil etadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:


1. Imonova, M., & Tojiyeva, D. (2024). PSIXOLOGIK XIZMATNING INSON HAYOTIDA TUTGAN O ‘RNI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 950-952.
2. Imonova, M., & Muhammadova, D. (2024). TA’LIM TIZIMIDA PSIXOLOGIK XIZMAT KO‘RSATISHNING USTUVORLIGI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 907-912.
3. Imonova, M. B. (2023). Oila tinchligi–jamiyat faravonligi asosi. Finland academic research science publisher, 1148-1151.
4. Иманова, М. Б. (2021). ШАХС ХАРАКТЕРИ АКЦЕНТУАЦИЯСИ ВА ДЕСТРУКТИВ ХУЛҚ-АТВОР. Academic research in educational sciences, 2(11), 1399-1403.
5. Imonova, M. B. (2023). Causes of Suicide Tendency in Adolescents. Journal of Discoveries in Applied and Natural Science, 1(1), 62-67.
6. Имонова, М. Б. (2023). РОЛЬ ОТНОШЕНИЯ СИБЛИНГА В ПРОБУЖДЕНИИ МОТИВОВ ОБУЧЕНИЯ ДЕТЕЙ. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(10), 101-104.
7. Имонова, М. (2023). Musiqiy tarbiya–qudratli quroldir yohud musiqiy tarbiyaning shaxs shakllanishiga tasiri. Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика, 1(1), 35-37.
8. Имонова, М., & Таджиева, Д. (2023). Boshlangich sinf oquvchilarida milliy tarbiyani pedagogik va psixologik rivojlanishi qonuniyatlari. Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика, 1(1), 74-76.
9. Имонова, М. Б. (2023). ВАЖНОСТЬ СЕСТРОВЫХ ОТНОШЕНИЙ В ЛИЧНОМ РАЗВИТИИ. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 2(22), 120-123.
10. Имонова, М. Б. (2023). РОЛЬ ОТНОШЕНИЯ СИБЛИНГА В ПРОБУЖДЕНИИ МОТИВОВ ОБУЧЕНИЯ ДЕТЕЙ. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(10), 101-104.
11. Имонова, М., & Тожиева, Д. (2023). Роль сиблинговых отношений в когнитивном развитии детей. Традиции и инновации в исследовании и преподавании языков, 1(1), 447-453.

12. Imonova, M., & Xoltorayeva, M. (2024). TA'LIM TIZIMIDA PSIXOLOGIK XIZMAT KO 'RSATISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO 'LLASHNING ZARURIYATI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 903-906.

13. Imonova, M. (2024). AMALIYOTCHI PSIXOLOG KADRLARNING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHINI TA'MINLASHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ORNI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 485-490.

14. Imanov, B. (2023). NEGATIVE FACTORS AFFECTING THE QUALITY OF EDUCATION AND WAYS TO ELIMINATE THEM. Science and innovation, 2(B3), 355-358.

15. Иманов, Б., & Имонова, М. (2021). Развитие творческих способностей учеников при выполнении проблемных экспериментов по физике с помощью инновационных технологий. Общество и инновации, 2(2), 222-227.

16. Ашурова, Ш. (2023). Оилада эр–хотин муносабатларини мувофиқлаштиришнинг ўзбек психологлари томонидан таҳлил қилиниши. Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика, 1(1), 67-71.

17. Ashurova Sh. F. (2023) SOG`LOM PSIXOLOGIK TURMUSH TARZI TO`G`RISIDAGI TASVVURLARNING SHAKLLANISHI "Журнал Педагогики и психологии в современном образовании,3(1).

18. Ashurova Sh.F. .(2022) A HEALTHY LIFESTYLE IN UZBEK FAMILIES FROM THE POINT OF VIEW OF ISLAM RELIGION Emergent: JOURNAL OF EDUCATIONAL DISCOVERIES AND LIFELONG LEARNING (EJEDL)

19. Ashurova, S. F., & qizi Karimova, M. N. (2023). OILADA O 'SMIRLARNING SOG'LOM TURMUSH TARZI VA OILAVIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLARI SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 363-368.

20. qizi Karimova, M. N., & Ashurova, S. F. (2023). PROFESSIONAL TA'LIMDA TAHSIL OLAYOTGAN QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH VA ULARDA SOG 'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 369-373.

21. qizi Ashurova, S. F. (2023). OILADA YOSHLARNING SOG 'LOM TURMUSH TARZIGA MUNOSABAT SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI MUAMMO SIFATIDA. Educational Research in Universal Sciences, 2(10), 32-35.

22. qizi Ashurova, S. F. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK QO 'LLAB-QUVVATLASHDA PSIXOLOGIK XIZMATNING O 'ZIGA XOS JIHATLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(9), 418-421.

23. Неъматуллаева, С. (2020). Психология детей в возрасте 5-7 лет. Студенческий вестник, (5-1), 62-63.

24. Ne'Matullayeva, S. (2022). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA O 'YIN TERAPIYASINI QO'LLASHGA OID QARASHLAR. Science and innovation, 1(B4), 444-449.

25. Nematullaeva, S. (2023). DEVELOPING COMMUNICATION SKILLS IN PRESCHOOL CHILDREN THROUGH GAME THERAPY. Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence, 2(4), 86-88.

26. Ne'matullayeva, S. (2022). Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida oyin terapiyasini qo'llashda innovatsion usullar. O 'zbekiston milliy universiteti xabarlari, 1(6).

27. Nematullaeva, S. (2023, April). The role of play therapy in a child's life. In Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education (Vol. 1, No. 1, pp. 9-10).

28. Неъматуллаева, С. Х. (2023). Влияние Игровой Терапии В Формировании Личности Детей. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 4(2), 31-33.